



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES



SPAIN CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND
INNOVATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024




INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION: a collection scientific works of the International scientific conference – Madrid, Spain, 2026, Issue 3.

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION**». Which took place in Spain, 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR SHAHSIYATI VA HAYOTI

Abdurahmonova Mohinur

“University of economics and pedagogy” NOTM
O‘zbek va rus tillari ta’lim kafedrası katta o‘qituvchisi

Anvarbekova Yorqinoy Ortiqali qizi

“University of economics and pedagogy” NOTM
BT yo‘nalishi 51 – guruh talabasi

Annotatsiya: Andijonning asl o‘g‘lonlaridan biri buyuk shoh va shoir, sarkarda, olim Zahiriddin Muhammad Bobur haqida so‘z yuritilgan ushbu qisqa satrlarda Boburning ta’riflari birla hayoti, shoh asari bo‘lmish “Boburnoma”si haqida so‘z ketadi.

Kalit so‘zlar: Andijon, Z.M.Bobur, Boburnoma, “Xatti Boburiy”, Umarshayx Mirzo, Amir Temur, Qutlug‘nigorxonim, Chingizxon, Temuriyzodalar, Movorounnahr, Xuroson.

Аннотация: Эти короткие строки, повествующие об одном из выдающихся жителей Андижана, великом царе, поэте, полководце и ученом Захириддине Мухаммаде Бабуре, описывают жизнь Бабура и его шедевр «Бабурнама».

Ключевые слова: Андижан, З.М. Бабур, Бабурнама, «Хатти Бабури», Умаршейх Мирзо, Амир Темур, Кутлугнигорханым, ЧингизХан, Темуридзаде, Мовороуннахр, Хорасан.

Abstract: These short lines, which talk about one of the original sons of Andijan, the great king and poet, commander, and scholar Zahiriddin Muhammad Babur, describe Babur's life and masterpiece, "Baburnama".

Keywords: Andijan, Z.M. Babur, Baburnama, "Hatti Baburiy", Umarshaikh Mirzo, Amir Temur, Kutluginigorkhanim, ChingizKhan, Temuridzade, Movorounnahr, Khurasan.

Buyuklar ichra buyukdir ul shohi nur jahon Bobur


Ulug‘lar ichra ulug‘dir el shoiri zamon Bobur

Suyuklar ichra suyukdir olam ichra hamon Bobur

Tiriklar ichra tirikdir sharafing Andijon Bobur

Yuksak aql-idrok, bukilmas iroda va g‘ayrat jasorat egasi beqiyos talant va qobilyat sohibi bo‘lmish Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining iqtidori, murakkab taqdiri, ochiq ruhiy olami va eng muhimi o‘zbek mumtoz adabiyotiga qo‘shgan buyuk hissasi bilan ne-ne buyuk allomalar ichra kishi e’tiborini o‘ziga ko‘proq jalb etadi.

1483-yilning 14-fevralda Andijonda aniqrog‘i Andijonning Axxi qo‘rg‘onida Temuriyzoda shahzoda bo‘lib tavallud topgan Zahiriddin Muhammadning otasi Umarshayx Mirzo Sohibqiron Amir Temur Ko‘ragonning avlodidan bo‘lib, Farg‘ona mulkining hokimi edi. Onasi Qutlug‘ Nigorxonim Toshkent hokimi Yunusxonning qizi edi. Shu o‘rinda alohida ta’kidlab o‘tishimiz kerak bo‘lgan narsa bu 4 avlod bilan Sohibqiron Temurga, 12 avlod bilan Chingizxonga taqalishidir.



Bobur Zahiriddin Muhammadga berilgan “laqab” bo‘lib, “she’r”, “yo‘lbars” ma’nolarini anglatadi. Bobur o‘zining qisqa va murakkab hayoti davomida anchagina asarlar yaratgan bo‘lsada, ularning hammasi bizgacha yetib kelgan emas. Zahiriddin Muhammadning arab yozuvi asosida yangi bir alifbo yaratgani va u tarixda “Xatti Boburiy” nomi bilan mashhur bo‘lgani barchamizga ma’lum. U aruz vazni va qofiya ilmi haqida ham risola bitgan. Adabiyotga va musiqaga yoshligidan qiziqgan Bobur musiqa sohasiga ham o‘zining ulkan hissasini qo‘shdi va “Ilmi musiqiy” risolasini yaratdi. Harbiy ishga, tasavvufga oid asarlar ham qoldirdi. To‘ng‘ich farzandi Humoyun Mirzoga atab islom qoidalar, soliq masalalari shariat qoidalari haqida katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan “Mubayyan” she’riy asarini yozadi. Shuningdek uning “Volidiya” deya atalgan tasavvufga oid bir kitobchanning nazm bilan tarjimai va shoh asari “Boburnoma” asari ham bizga ma’lum. O‘sha davr o‘zbek adabiy tili va mumtoz adabiyotining yorqin namunasi bo‘lgan bu asar Movarounnahr, Xuroson, Afg‘oniston, hindiston xalqlarining XV asr oxiri va XVI asr boshlari tarixiga oid nodir ma’lumotlar manbaidir. Bu asarning muhim xususiyati shundaki Bobur unda bevosita o‘zi ishtirok etgan, eshitgan va sezgan voqea-hodisalarni boricha-oshirmay, yashirmay, to‘g‘ri hamda xaqqoniy yozadi.

“Boburnoma” - o‘zbek nasrining ilk va ibratli namunasi. Asarni yozishda Bobur turli xil badiiy usul va til vositalaridan mahorat bilan foydalanadi, joylar manzarasi, ob-havosi, o‘simliklar dunyosi, monografiyasi, aholisi, xalq va qabila urf-odatlarini bilimdon olim, adib va shoir, geograf va tabiatshunos, tarixchi va etnograf, benazir tilshunos va san’atshunos xullas serqirra alloma sifatida bayon qiladi. “Boburnoma”ning lotin, fransuz, ingliz, nemis, golland, fors, hind, afg‘on, rus, turk, qozoq va boshqa ko‘plab horijiy tillarga tarjima qilingani hamda u hozirga qadar alohida mehr bilan o‘qib kelinayotganligiga ham asosiy sabab shu deb o‘ylayman. Asarning asl nomi “Boburiya” bo‘lsada, uni “Voqeanoma”, “Tuzuki Boburiy”, “Voqeoti Boburiy” deb ham atashdi. Lekin keyinchalik hattoki hozirgi kunda ham “Boburnoma” degan nom ostida ma’lum va mashhur. “Boburnoma”ni o‘qir ekan har bir kitobxon Zahiriddin Muhammadning shaxs va joy tasvirini ifodalashdagi beqiyos mahoratiga shuningdek til mahoratiga tasannolar aytadi. Jumladan, ona yurti bo‘lmish jannat kabi Farg‘ona vodiysining yuragi hisoblangan Andijon to‘g‘risida so‘z ochganda bu yerning **sabzavot-poliz** ekinlari, mevalari, qushlari, hayvonot dunyosi, hududiy o‘rni haqida batafsil ma’lumot beradi. “Eli turkdir. Shahri va bozorinda turki bilmas kishi yo‘qdur. E lining lafzi qalam bila rostdur.”

Biz shoh va shoir, davlat arbobi bo‘lmish Boburning bu so‘zlari orqali o‘sha davrda ham Andijon elining tili o‘zbek adabiy til me‘yorlariga javob bera olganin anglab yetishimiz mumkin. Tarixiy shaxslar tasvirida Bobur o‘zining nechog‘li rostgo‘y va iqtidorli musavvir ekanini ko‘rsatadi. Masalan, otasi Umarshayx Mirzo to‘g‘risida “baland qimmatliq va ulug‘ doiyaliq podshoh erdi” deydi va uni Amir Temurning uchinchi o‘g‘li Mironshoh Mirzo bilan bog‘laydi. So‘ngra uning shakl va shamoyilini aniq chizgilar bilan tasvirlaydi. Bobur o‘zining 47 yillik hayoti davomida 120 g‘azal, 210 ruboiy, 10dan ortiq tuyuq, qit‘a, fard, 150dan ortiq muammolar yaratib, badiiy adabiyotda o‘chmas iz qoldirdi. Boburning lirik merosini hozirgi kunda bilmagan va eshitmagan, hofizlarning Bobur g‘azallari la aytgan qo‘shiqlarini yod olmagan o‘zbek bolasi ayniqsa Andijon farzandlari qolmagan desam aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Bobur ijodini va hayotini o‘rganish biz uchun juda muhim. Chunki u bizning eng ulug‘, buyuk, komil inson bobolarimizdan biridir. Bobomiz Zahiriddin Muhammadning hayot yo‘li vatan so‘ginchi, yurtiga qaytolmaslik iztirobi ila 1530 yil 26-dekabr kuni Hindistonning Agra shahrida o‘z payoniga yetdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. “Boburnoma” asari.
2. A. Ziyo. Temuriylar davri tarixi. – Toshkent: Akademnashr, 2014
3. S. Jalilov. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008.

